

O‘ZBEK VA INGLIZ XALQ IBORALARIDA “OILA” KONSEPTINING IFODALANISHI

Rajabov Elshod Erkinovich

Navoiy davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

Qiyomova Nigora Bahodir qizi

Buxoro viloyati G‘ijduvon tumani 34-maktab

ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek va ingliz tillaridagi frazeologik birliklar qiyosiy tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *oila, maqol, naql, ota-ona, o‘g‘il, qiz, uyg‘unlik, yaxshilik, tahlil.*

Annotation. This article compares and analyzes phraseological units in Uzbek and English languages.

Key words: *family, proverb, wise saying, parents, son, daughter, harmony, kindness, analysis.*

Аннотация. В данной статье сравниваются и анализируются паремиологические единицы на узбекском и английском языках.

Ключевые слова: *семья, пословица, мудрое изречение, родитель, сын, дочь, гармония, доброта, анализ.*

Ma’lumki, oila jamiyatning, har bir xalq turmush tarzining ajralmas bir bo‘g‘ini hisoblanadi. Shaxsning shakllanishi, ma’naviyatining tarkib topishi va rivojlanishida oilaning o‘rni beqiyosdir. Jamiyatning asosiy guruhi hisoblangan oila shu jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liq holda rivojlanib boradi. Qadimgi sharq xalqlarida “Oila – vatan ichra vatan”, “Oila – mehr-oqibat maskani”, “Oila – baxt qo‘rg‘oni” kabi purma’no hikmatlarning mavjudligi oilaning inson va jamiyat hayotidagi mavqeyi naqadar ahamiyatli ekanligining yorqin dalilidir.

Insoniyat taraqqiyotidan ma'lumki, ibtidoiy jamiyatning ilk davrlarida shakllana boshlagan oila-qarindoshlik munosabatlari ma'lum davrlar o'tishi bilan tobora mustahkamlanib, takomillashib borgan. Shaxs, oila va oilaviy munosabatlar masalasi bugungi kunda ham o'zining tarixiy, madaniy, milliy va umumbashariy qadriyatlarga egaligi bilan katta ahamiyatga ega. Shunday ekan, har bir xalq, millat vakili oila muqaddas ekanligi, uni ulug'lash, e'zozlash zarurligi, unda umuminsoniy va milliy qadriyatlar aks etganligini his qilishi lozim. Shu o'rinda Hazrat Navoiyning oila tayanchlari bo'lmish ota va ona haqida bitgan purhikmat misralarini keltirish o'rinlidir:

Boshni fido ayla ato qoshig'a,

Jismni qil sadqa ano boshig'a.

Tun-kuning aylagali nur fosh,

Birisin oy ayla, birisin quyosh.

Oila tushunchasi dunyoning barcha xalqlarida ham mavjud. Ammo, tabiiyki, ulardagi oila tushunchasiga bo'lgan qarashlar bir xil emas. Ayniqsa, oiladagi qadriyatlar, milliy urf-odatlar va an'analar, oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlar masalasida turli xalqlar milliy madaniyatida o'zaro tafovutlar yo'q emas. Oila to'g'risidagi bunday qarashlar o'z-o'zidan tilda aksini topdi va bu tushunchalar lisoniy ifodaga ega bo'ldi. O'zbek va ingliz tillarida ham "oila" konseptiga ishora qiluvchi lisoniy birliklar talaygina bo'lib, ushbu ishda frazeologik birliklarning ikki tildagi qiyosiy-tipologik tahliliga e'tibor qaratildi, o'zbek va ingliz xalq iboralari misolida oila tushunchasining lisoniy mohiyati, uning mazmuniy xususiyatlari tahlil qilindi.

Ma'lumki, frazeologik birliklar paremiologik birliklar singari xalq donishmandligi natijasida vujudga kelgan, ma'lum bir ibratli fikr-xulosani o'zida mujassam etgan barqaror birikmalar hisoblanadi. Frazeologik birliklarda milliy tafakkur, xalqona ur-odatlar va an'analar, turmush tarzi, milliy mentalitet kabi tushunchalar yaqqol aks etadi.

"Oila" konseptiga ishora qiluvchi o'zbek va ingliz xalq iboralari quyidagi mazmuniy guruhlarga ajratgan holda tahlil qilish mumkin:

- 1) oila a'zolari va qarindosh-urug'lar bilan bog'liq iboralar;
- 2) oilada turmush tarzi, uy-joy, ro'zg'or masalalari va oilaviy munosabatlar bilan bog'liq iboralar;
- 3) oilali bo'lish, turmush qurish masalalari bilan bog'liq iboralar;
- 4) oilada farzandning o'rni haqidagi iboralar.

O'zbek va ingliz tillarida oila a'zolari va qarindosh-urug' nomlari bilan bog'liq xalq iboralari salmoqli. O'zbek tilida oila a'zolari, ular o'rtasidagi qarindoshchilik munosabatlari quyidagi frazeologik birikmalarda aks etadi: *Bir mayizni teng bo'lib yeydi* (bir-birlaridan hech narsa ayamaydigan, doimo birga yuradigan, topganlarini o'rtaga qo'yib, birga baham ko'radigan yaqin qarindoshlar va do'stlarga nisbatan ishlatiladi); *Biri qosh, biri ko'z* (o'ziga eng yaqin qarindosh-urug'i yoki samimiy do'stiga nisbatan ishlatiladi); *Bir ko'rpada tepkilashib o'sgan* (bir nechta oshna-og'aynilar, do'stlar yoshlik chog'laridan birga o'sadilar, birga ulfatchilik qiladilar, ularni hech kim ajrata olmaydi ma'nosidagi ibora); *Bir-biri bilan qirq pichoq bo'lib, urushib o'layozishdi* (biror narsa – yer, mulk, meros ustida bir katta oilaning ikkiga bo'linib qattiq urush qilishlarini ifoda etadi); *Oftobda qatiq ichishgan qarindosh* (bir odam yuqoriroq amalga ega bo'lganda, unga o'zini qarindosh qilib ko'rsatuvchilar ko'payadi ma'nosida ishlatiladi); *Yaqindagini bo'ri emas* (bir odam to'y yoki ziyofat qilganda, o'zining yaqindagi qarindoshi yoki do'stini esdan chiqarib aytolmaydi, ammo uzoq-uzoq joylardan qarindosh-urug'lari o'z vaqtida yetib keladi. Shunday vaziyatda ushbu ibora ishlatiladi); *O'ligimga o'tirgan, tirigimga tik turgan, ko'zdek qarindoshim* (hamma masalada yordam beradigan, to'yiga qarashib turadigan, o'lim bo'lsa borib xizmat qiladigan qarindoshlarga nisbatan ishlatiladigan ibora); *Hozircha tirik to'qimga yo'lamay, sag'risiga qo'l tekizdirmay yuribdi* (oilada hayotidan uzoqda bo'lgan, tirikchilikka bo'ysunmagan, ro'zg'or ishlarini bo'yniga olmagan shu oilaning a'zosiga nisbatan ishlatiladigan ibora). Ingliz tilida esa qarindoshlik munosabatlarining madaniy jihatlarini o'zida aks ettirgan quyidagi idiomatik birliklarni keltirib o'tish mumkin: *to get serious* (to have a relationship with someone), *to get back together* (to turn to a relationship or marriage after

separating), *to be like one of the family* (used as a way to say that someone or something is a part of the family or a member of the family), *to run in the family* (to be common quality among members of a particular family, a lot of people in the family have that characteristics), *to be at cross-purposes* (not understand each other because they are trying to do or say different things), *to live in each other's pockets* (to do everything together), *to hit off* (to develop a friendly relationship quickly), *to start off on the wrong foot* (to have a bad start to a relationship), *to look up to someone* (to respect and admire someone, to have a very good opinion of someone), *to take after someone* (to resemble a member of your family in appearance or character), *to get round someone* (to persuade someone to let you do or have something, usually by flattering them), *to take one's side* (to support someone), *to be close to someone* (to like someone very much), *eternal triangle* (a relationship between three people), *empty nest syndrome* (the sad feelings which parents have when their children grow up and leave home), *in and out family* (members of the same family who are regulars at the workhouse), *a close band* (relationship or feeling of togetherness), *nearest and dearest* (someone's close relatives), *one's own flesh and blood* (someone's relatives), *a man and a brother* (one's best relatives and friends), *a long-lost relative* (is one whom you have not seen for many years), *shoulder to shoulder* (relatives who live together), *forty second cousin* (not to be close relatives), *cousin seven times removed* (relatives who are not close), *to receive someone into one's house* (to receive someone as a relative), *to be one's kith and kin* (to be related by blood), *a man of no family* (a man who has not got family and any relatives such as wife and children).

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, qarindoshlik atamalari va tushunchasi ishtirok etadigan frazeologik birliklar har doim ham oila, qavm-qarindoshlik munosabatlariga ishora qilavermaydi. Ba'zi frazeologik birliklarda bunday atamalar qo'llansa ham, umumiy mazmun boshqa munosabatni ifodalashga xizmat qiladi. Bu kabi birliklarni o'zbek tilining ham, ingliz tilining ham lug'at boyligida uchratish mumkin. Jumladan, o'zbek tilida *Onasining qornida* (hali tug'ilgani yo'q, mutlaqo yo'q, yer yuzida topilmaydi), *Onasini ko'rsatmoq* (ta'zirini bermoq,

jazolamoq), *Ona suti og'zida* (hali yosh, tajribasiz ma'nosida), *Ona suti og'zidan ketmagan* (hali yosh, tajribasiz ma'nosida), *Ona suti og'zidan anqib turgan* (hali yosh, tajribasiz ma'nosida), *Ona suti og'ziga kelmoq* (haddan tashqari qiynalmoq ma'nosida), *Onadan tug'ma bo'lib* (har qanday kasallikdan yoki balo-qazolardan xoli bo'lib, aslidagiday; sog'lom, hech narsa ko'rmaganday), *Ota go'ri qozixona* (bir kishining arzimagan aybini katta jinoyatga yo'yib ko'rsatish), *Otang temirchimi?* (Muncha ezmasan, gapni cho'zma, degan ma'noda ishlatiladigan ibora), *Otasining xunini so'ramoq* (biror narsa uchun haddan ziyod pul yoki haq so'ramoq, biror narsaga juda qimmat baho qo'ymoq), *Bu ham yo'q edi, otam bozordan keltirdi* (Bolalar biror taom, kiyim-bosh, buyumdan norozi bo'lib, xarxasha qilib, injiqlik bildirganda shunday deyiladi. Boriga, topilganiga shukur qil, shu ham aslida yo'q edi, dadang bozordan keltirdi, deya mazkur buyumning narxi oshiriladi, bahosi – qadri ko'tariladi) kabi turg'un birikmalarda; ingliz tilida esa *Am I my brother's keeper?* (Am I guilty?); *Sister Anne* (reliable friend); *Bob's your uncle* (everything is good); *It's not your uncle* (it is not easy), *Husband's tea* (cold tea); *If my aunt had been a man, she'd had been my uncle* (what if, in case); *Sister company* (branch of the company); *Father daughter dance songs* (songs of good fortune) kabi barqaror birikmalarda yuqoridagi holat ko'zga tashlanadi.

Ayniqsa, turmush tarzi, uy-ro'zg'or, oiladagi ahillik, oila a'zolari o'rtasidagi inoqlik, birlik, mehr-muhabbat, oilaviy munosabatlar masalasi qadimdan o'zbek va ingliz iboralarida asosiy o'rin tutib kelgan. Bu holatni o'zbek tilidagi *Qozonni suvga tashladi* (zo'rg'a tirikchilik ko'rayotgan oilalarda har kun ham qozon qaynamaydi, qozon qaynamagan o'sha kun ushbu ibora ishlatiladi); *Qora qozoni qaynab turibdi* (biror kishining turmushi, ro'zg'ori, tirikchiligi o'tib borayotir ma'nosida ishlatiladi); *O'choqning kulini tort* (oilalarning a'zolari o'rtasida ro'zg'orini tejash maqsadida aytiladigan ibora); *Bo'yniga tuzluq to'rva tushdi* (ota-onaga yoki merosga orqa qilib tirikchilikni bo'yniga olmagan odam ota-ona o'lgach, meros tomom bo'lgach tirikchilik qilishga majbur bo'ladi); *Baland oxurdan suv ichgan* (katta yeb, katta ichib o'rgangan va og'ir mehnatga darrov bo'yin egmaydigan oila a'zolariga nisbatan ishlatiladigan ibora); *Beli baquvvat* (puli ko'p, davlati zo'r oila

kishilariga nisbatan ishlatiladigan ibora) frazeologizmlari orqali ifodalash mumkin. Ingliz tilidagi *to feel homesick* (to feel after moving away from own family), *to set up home* (to start an independent life in one's own flat or house), *to provide for one's family* (to earn enough money to support family), *on the rocks* (difficult situation in relationship), *to be born with a silver spoon in one's mouth* (to be born to a wealthy family with many advantages), *to fly the nest* (to leave to live independently), *not to see eye to eye* (you do not agree on something), *to have its ups and downs* (to have good and bad moments), *to live to a ripe old age* (living well into old age), *to be at death's door* (to be close to death), *to feel one's age* (to feel as old as they are), *a family feud* (quarrel in a family causing bad feeling for many ears), *a bumpy relationship* (up and down like a car on a road with bumps) frazeologik birliklari ham yuqoridagi masalaning yorqin bir dalilidir.

Har qanday xalqlarda bo'lgani kabi o'zbek va ingliz xalqlarida ham oilali bo'lish, turmush qurish, er va xotin munosabatlari singari dolzarb masalalar shu xalqlarning tilida turli xalqona naqlar orqali gavdalantiriladi. O'zbek tilida *oila qurmoq, oilali bo'lmoq, turmush qurmoq, ro'zg'or boshiga tushmoq, boshini ikkita qilib qo'ymoq, bo'yniga olaxurjun tushmoq, bir yostiqa bosh qo'ymoq* kabi ko'plab iboralar mavjud. Ingliz tilida ham shu kabi "*To tie the knot*" (turmush qurmoq), "*It is good to marry late or never*" (Kech yoki hech uylanmaslik yaxshi), "*Marry your daughters betimes, lest they marry themselves*" (Qizning o'zi erga tegmasligi uchun uni tezroq erga berish kerak), "*Marry your son when you will, your daughter when you can*" (O'g'lingni xohlaganingda uylantir, qizingni esa imkoniyatin borida uzat) iboralari mavjud ekanligini ta'kidlash kerak.

Oilada farzandning tug'ilishi, uning oiladagi tarbiyasi masalasi ham o'zbek va ingliz xalqlari milliy madaniyatining o'ziga xos bir namunasidir. Bu madaniy jihatlar o'zbek va ingliz xalqlarining tilida ham o'z ifodasini topgan. Ayniqsa, o'zbek tilida *Bir palakdan necha xil qovun yetishadi* (bir ota-onadan olti-yetti bola tug'ilsa, shu bolalar tashqi ko'rinishda bir-birlariga o'xshasalar ham, xulq-atvori jihatidan har xil bo'ladilar, bir-birlariga o'xshamaydilar. Mana shunday bir ota-onadan tug'ilgan bolalar fe'l-atvorining har xil bo'lishiga qarab ishlatiladi),

Burunni sassiq deb kesib tashlab bo'lmaydi (ba'zan kishi a'zolarining hammasi baravar salomat bo'lavermagandek, bir ota-onadan bo'lgan bolalarning hammasi ham bir xil yaxshi bo'lavermaydi. Ota-ona farzandlari ichida yomon bolasini harchand yaxshi yo'lga solaman deb urinib ko'radi, lekin epga ololmaydi. Ota-ona bunga chora topolmasligini, farzandini yo'q qilolmasligini nazarga olib ishlatiladi), *Yengilini yetaklab, og'irini orqalab, bularni boqquncha ona sutim og'zimga keldi* (bolani boqish va tarbiyalash mas'uliyatli va qiyin ishdir. Shunday azob-uquqbat bilan bola boqqan ota-onaga nisbatan ishlatiladigan ibora), *Yerga qo'ysam gard bo'ladi, osmonga qo'ysam chang bo'ladi, deb bolasini yer-u ko'kka ishonmaydi* (shunday xotinlar bo'ladi, uzoq yillar bola ko'rmaydi yoki bolasi turmaydi. Natijada eng so'ng tug'gan bolasini hech kimga ishonmaydi. Doimo asrab-avaylab, erkalab o'stiradi. Mana shunday xotinga nisbatan ishlatiladi), *Jo'javurdek jon* (tovuq jo'jalarining ko'pligiga qarab, ko'p bolali odamlarga nisbat beriladi, ya'ni bolasi ko'p kishiga "jo'javurdek jon" deyiladi. Bu ibora ko'proq achinish, ayash ma'nosida ishlatiladi), *Yirtiqqa yamoq, dardga davo bo'ladi* (bu ibora bolaga nisbatan ota-ona tarafidan aytiladi. Ota-ona bolani qiyinchiliklar bilan boqib voyaga yetkazadi, so'ngra qo'lidan ish kelmaydigan bo'lib qolganda, ba'zi bolalar ularga qaramay qo'yadi. Mana shunday holda ishlatiladigan ibora), *Kun tug'sa ham shunga tug'sin; oy tug'sa ham shunda tug'sin* (ota-ona yaxshi ko'rgan farzandiga eng go'zal, ko'rkam, a'lo darajali narsalarni ravo ko'radi. Oy, kun va ularning tug'gan bolasi yoki ularning chiqishini yaxshi ko'rgan farzandiga munosib ko'rib shu iborani qo'llaydi), *Tobut ostida qolgan bola* (qarigan kishining xotini tug'adi, ammo chol o'lib qoladi. Tug'ilgan bolaga nisbatan shu ibora ishlatiladi) singari iboralar bunga yaqqol misol bo'ladi. Ingliz tilidagi "*As the tree, as the fruit*" (*Daraxtiga ko'ra mevasi, ota-onasiga ko'ra bolasi*), "*Each bird loves to hear himself sing*" (*Qora qo'ng'iz ham o'z bolasini oppog'im deydi*), "*Every mother thinks her own gosling a swan*" (*Har kimniki o'ziga, oy ko'rinar ko'ziga*), "*Like father, like son; like mother, like daughter*" (*Otadan o'g'il, onadan qiz*), "*The parson always christens his own child first*" (*Har kimsa birinchi bo'lib o'z bolasini cho'qintiradi*), "*Happy is he that is happy in his children*" (*Har kishining*

baxti uning bolalarida ko‘rinadi), “*Many a good father has but a bad son*” (Ko‘p yaxshi otalarning yomon o‘g‘li bo‘ladi) iboralari ham farzand to‘g‘risida ekanligi bunga misol bo‘la oladi.

O‘zbek va ingliz tillarida oila konseptiga xos bunday frazeologik birliklar juda ko‘p. Oila konseptiga ishora qiluvchi maqollar o‘zbek va ingliz xalqi muloqot jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirzayev T, Musoqluv A, Sarimsoqov B. O‘zbek xalq maqollari lug‘ati. – Toshkent, “Sharq”, 2013.
2. Shomaqsudov Sh, Shorahmedov Sh. Hikmatnoma: O‘zbek xalq maqollarining izohli lug‘ati. – Toshkent, 1990.
3. Shomaqsudov Sh, Dolimov S. Qayroqi so‘zlar: xalq iboralarining izohli lug‘ati. – Toshkent, “O‘zME”, 2011.
4. Karomatova K.M, Karomatov H.S. English proverbs. Toshkent, 2005.
5. Abdurauf Fitrat. Oila yoki oilani boshqarish tartiblari. Toshkent, “Ma’naviyat”, 2000.